

Toshkentda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Assambleyasining «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» ga bag'ishlangan davra suhbatini o'tkaziladi



Joriy yilning 12 iyul kuni Toshkentda BMT Bosh Assambleyasining «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» to'g'risidagi resolyusiyaning muhokamasiga bag'ishlangan davra suhbatini bo'lib o'tadi.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi ko'magida tashkil etiladi.

Tadbirning asosiy maqsadi - BMTning Markaziy Osiyo bo'yicha rezolyutsiyasi mohiyatini va ahamiyatini, shuningdek, Markaziy Osiyoda tinchlik, barqarorlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashda mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash istiqbollari muhokama qilishdan iborat.

Davra suhbatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi, Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi savdo vazirligi, «O'zbekiston temir yo'llari» davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi, Fanlar akademiyasi, Xalqaro munosabatlar axborot-tahlil markazi, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari, xorijiy mamlakatlarning diplomatik vakolatxonalari rahbarlari, shuningdek O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xorijiy jurnalistlar ishtirok etadi.